

TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA

2023
4-son

ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal



ISSN 2181-8274



*Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal.
1996-yilda tashkil etilgan.*

Tahrir hay'ati raisi:

Sh.U.Yakubov

Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari
markazi direktori

Tahrir hay'ati raisi o'rinbosari:

M.X.Esanov

Bosh muharrir:

A.T.Eshmurodov

Bosh muharrir o'rinbosari:

A.A.Sabriyev

Tahrir hay'ati a'zolari:

L.R.Zaripov

A.A.Dadasheva

Sh.A.Rasulov

M.M.Inagamova

S.Q.Maxsumova

S.S.Samandarova

M.Q.Sultonov

S.S.G'oziyev

O.N.Toshpulatov

Jamoatchilik kengashi a'zolari:

Q.X.Abduraxmanov

Sh.T.Qudratxo'ja

G.Sh.Rixsiyeva

Sh.S.Sirojiddinov

R.I.Xolmurodov

A.I.Toshpulatov

N.M.Jabborov

M.A.Raxmatullaev

T.Z.Teshabayev

Dizayner:

S.Musamedov

TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA

Lolaxon Turayeva

Erkin mexanik tebranishlarni maple dasturiy vositasi yordamida o'rganish va namoyish etish.....6

Xurshidaxon Raximova

Koxlear implantli bolalarni eshituv-nutqiy rehabilitatsiyasida innovatsion texnologiyalarning o'rni.....9

Muxammad Xalimov

Zamonaviy maktab jamoasini shakllantirish jarayonida xodimlarni boshqarish12

Muxayyo Avezova

Inklyuziv ta'limning rivojlanish tarixi va ahamiyati16

Gulshoda Begmatova

Kollaborativ o'qitish texnologiyalari vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish.....20

Nayrullo Adjiyev

Raqamli ta'lim sharoitida talabalarning evristik fikrlashini rivojlantirish...22

Shoxista Doniyorova

Oliy ta'lim muassasasi xalqarolashuvining pedagogik shart-sharoitlari24

Alijon Guliyev

Talabalarning intellektual kompetentligini rivojlantirishning tarkibiy tuzilmasi.....27

Munira Raupova

Bo'lajak o'qituvchilarni huquqiy ijtimoylashtirishning ta'lim strategiyalari32

Abdurashid Darvishxo'jayev

Pisa va timss tadqiqotlarining tabiiy fanlar ta'lim sifatini aniqlash metodologiyasi.....35

Gulnoza Bekmuradova

Rivojlangan xorij mamalakatlarida ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari40

Жохон Ахмедов

Спорт воситасида ўқувчи ёшларга умуминсоний фояларни сингдириш масалалари (кураш спорт тури мисолида)44

Dilbarxon Yuldosheva, Feruzabonu Addusalomova

Ta'limni zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etishda o'quvchi va pedagog hamkorligi47

Umumta'lim maktablarida inson resurslarini boshqarishning natijadorligi maktab faoliyati samaradorligini oshganligi, strategik maqsadlarga erisha boshlaganligi, ta'lim natijalarini yaxshilanayotganligi bilan o'lchanadi.

Bu IRB (HRM)ning o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarga erishganligi va o'quvchilarning ta'lim natijalarini oshganligini bildiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Cherkesova E.Y., Belikova S.S., Popova E.M. et al. Mechanism of Development of Human Capital Within Human Resources Management of Modern Organization, Mediterranean Journal of Social Sciences, Vol 6 No 5, 2015, p. 399-404.
2. Bloom Nicholas, Renata Lemos, Raffaella Sadun, and John Van Reenen. "Does Management Matter in Schools?" Economic Journal (Royal Economic Society) vol. 125, no. 584, 2015, p. 647-674.
3. Bloom Nicholas, Renata Lemos et al., 2015, p. 648-674
4. Cherkesova E.Y., Belikova S.S., et al., 2015, p. 399-400.
5. Hanushek E., Kain J. and Rivkin S. Why public schools lose teachers. Journal of Human Resources, 39(2), 2004, pp. 326-354.
6. Boyd D., Lankford H., Loeb S., Ronfeldt M. and Wyckoff J. The role of teacher quality in retention and hiring: Using applications to transfer to uncover preferences of teachers and schools. Journal of Policy Analysis and Management 30(1), 2011, pp. 88-110.
7. Loeb S., Kalogridis D. and Beteille T. Effective schools: teacher hiring, assignment, development, and retention. Education Finance and Policy 7(3), 2012, pp. 269-304.



INKLYUZIV TA'LIMNING RIVOJLANISH TARIXI VA AHAMIYATI

Muxayyo Avezova,

Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

Anotatsiya

Maqolada inklyuziv ta'lim tushunchasi, uning lug'aviy ma'nosi haqida ma'lumot keltirilgan. Oliy o'quv yurtlarida inklyuziv ta'limga e'tibor va inklyuziv ta'limning rivojlanish tarixi bayon etilgan. O'zbekistonda maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim sohasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlarning dolzarb muammolari, erishilgan yutuqlar va qo'yilgan vazifalarni bajarish, inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish to'g'risida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Inklyuziv, ta'lim turi, UNICEF, kelajakdagi istiqbollar, ehtiyojli bolalar, maxsus pedagogika, integratsiyalashgan ta'lim.

Аннотация

В статье представлена информация о понятии инклюзивное образование и его словарном значении. Описано внимание к инклюзивному образованию в высших учебных заведениях и история развития инклюзивного образования. Рассказываются актуальные проблемы научных исследований в области специальной педагогики и инклюзивного образования в Узбекистане, достижения и выполнение задач, развитие инклюзивного образования, совершенствование системы образования детей с особыми образовательными потребностями.

Ключевые слова: инклюзивное, вид образования, ЮНИСЕФ, перспективы на будущее, нуждающиеся дети, специальная педагогика, интегрированное образование.

Annotation

The article provides information about the concept of inclusive education and its dictionary meaning. The attention to inclusive education in higher educational institutions and the history of the development of inclusive education are described. The topical problems of scientific research in the field of special pedagogy and inclusive education in Uzbekistan, the achievement and fulfillment of tasks, the development of inclusive education, and the improvement of the education system for children with special educational needs are described.

Keywords: inclusive, type of education, UNICEF, future prospects, children in need, special pedagogy, integrated education.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrda "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5270-son, 2019-yil 29-apreldagi "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5712-son,

tirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5270-son, 2019-yil 29-apreldagi "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5712-son,

2020-yil 6-noyabrda "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonlari, 2020-yil 13-oktabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son qarori, 2017-yil 27-iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalarini va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 638-son qarori va boshqa hujjatlarda kadrlar masalasi, ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, jarayonni metodik va didaktik ta'minlash vazifalari belgilab berilgan.

Ushbu hujjatlar asosida O'zbekistonda maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim sohasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlarning dolzarb muammolari, erishilgan yutuqlar va qo'yilgan vazifalarni bajarish, inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish kabi ishlar olib borilmoqda.

"Inklyuziv ta'lim" atamasi fransuzcha "inclusif" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "o'z ichiga oladi" deb tarjima qilinadi va maxsus ehtiyojlari bo'lgan va shartli ravishda sog'lom, ya'ni sog'ligi cheklanmagan odamlarning birgalikdagi ta'limini anglatadi [1, 7]. Inklyuziv ta'limning mazmun mohiyati to'g'risidagi bilim va ma'lumotlar hali jamiyatda yetarli emas.

"Inklyuziv" va "integratsiyalashgan" atamaları ko'pincha bir xil ma'noda ishlatiladi. Shunga qaramasdan, falsafada bu tushunchalar orasida farq bor.

Nogiron bolani oddiy sharoitga joylashtirish integratsiyaga qarab qo'yilgan birinchi qadamdir.

Integratsiyalashgan ta'lim bu — diqqat markazida bolaning aynan maktabga kelib-ketish muammosi turgan, maxsus ehtiyojli bolaning maktabga qatnash jarayonidir.

Integratsiyalashgan ta'limda bolaga muammo sifatida qaraladi.

Inklyuziv ta'lim — umumta'lim jarayonini rivojlantiradi va barcha bolalarga mos bo'lgan ta'limni joriy qiladi. Imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim olishiga oid qo'shimcha moslamalarni tashkil qilib bolalarni ta'lim olishiga qulay sharoit yaratadi [2, 184]. Inklyuziv ta'lim har xil ehtiyojli bolalarning ta'lim olishiga qaratilgan metodologiyani rivojlantirishga harakat qiladi. Inklyuziv ta'lim turli ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan ixcham turdagi dars berishga yondashadigan ta'limni ishlab chiqishni amalga oshiradi. Agarda inklyuziv ta'limni tatbiq etishda dars berish, o'qitish birmuncha samarali va un-

umli bo'lsa, unda nafaqat imkoniyati cheklangan bolalar, balki barcha bolalar yutadi. Inklyuziv ta'lim maktablari bolalarning bilim olish uchun shaxsiy huquqlarini himoyalaydi (vaholanki, ular o'qitilmasa ham). Bunday yondashuv diskriminatsiyani bartaraf etadi, kamaytiradi, chunki bolalar bir-birlari bilan muloqot qilish jarayonida o'zlarining o'qitilish jarayonida turli ehtiyojlarga ega individum ekanliklarini anglaydilar [3, 79].

Sharqning mashhur allomalari Ibn Sino, Imom Buxoriy, Abu Nasr Farobiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniyilar ilgari surgan tarbiyaning maqsadlari har bir bola shaxsining rivojlanishiga ta'limning ta'siri to'g'risidagi qarashlari inklyuziv ta'lim rivojlanishining metodologik bazasi hisoblanadi [4].

Juda uzoq vaqt davomida maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim muassasalariga nisbatan maxsus segregatsion ta'lim muassasalarida ta'lim tarbiya berish samarali deb hisoblab kelindi. 1970-1980-yillarga kelib jahon miqyosida insonparvarlik va kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik g'oyasining ilgari surilishi maxsus ehtiyojli bolalarga e'tiborning yanada yaxshilanishiga olib keldi.

1990-yildan buyon maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida bir qancha jahon miqyosida deklaratsiya va qarorlar qabul qilindi. Ularni jahonning ko'plab davlatlari e'tirof etdilar. 2006-yilda BMTning "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasi (UNCPRD) qabul qilindi. 2009-yil 27-fevralda bu hujjat mamlaktimiz tomonidan ratifikatsiya qilingan. Ushbu Konvensiyaning 24-moddasida: "Ishtirok etuvchi davlatlar nogironlarning ta'lim olish huquqini e'tirof etadilar. Ishtirok etuvchi davlatlar ushbu huquqni kamsitmasdan va imkoniyatlar tengligi asosida amalga oshirish maqsadlarida barcha darajalarda inklyuziv ta'limni va butun umri davomida o'qitilishlarini ta'minlaydi", deb belgilangan [3, 93]. O'zbekiston Respublikasida nogiron bolalar bilan bog'liq tahlil va dastlabki baholash ishlari 1966-yilda boshlangan. 1996-yilning noyabr oyida YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Milliy komissiyasi tashabbusi asosida Toshkentda "Maxsus ta'lim sohasida inklyuziv usullar" mavzusida milliy o'quv dastur muvaffaqiyatli amalga oshirilgan. 1998-yilning oktabr oyida Buxoro shahrida Pedagogik ushbu mavzu bo'yicha mintaqaviy anjuman tashkil etilgan edi. Mazkur anjuman YUNESKO, UNICEF (BMTning bolalar jamg'armasi), Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti va xalqaro mehnat tashkiloti bilan hamkorlikda amalga oshirilgan. Ushbu tadbirlar natijasida 2001-yilda O'zbekiston xalq ta'limi vazirligi qoshida inklyuziv ta'lim bo'yicha manba markazi tashkil etildi. Hozirgi kunga qadar ushbu markaz tomonidan bir necha o'quv seminarlari o'tkazildi [5].

– UNICEF Xalq ta'limi vazirligining defektolog va psixologlarning inklyuziv ta'limdagi roli to'g'risidagi nizomlar loyihalarini ishlab chiqishga ko'maklashdi;

– UNICEFning ko'magi inklyuziv ta'lim bo'yicha 5

yillik ish rejasi ta'lim sohasining umumiy rejasiga kiritilishini ta'minladi. Uning istiqboli rejalarini:

- tanlab olingan mintaqalarda inklyuziv ta'lim uslublarini tajriba sifatida joriy etish uchun xalq ta'limi vazirligiga texnik yordam ko'rsatishdir;
- maktabga qatnamaydigan yoki shunday xatarga uchrayotgan bolalarga alohida e'tibor qaratadigan viloyat bolalar rivojlanish markazlarida tegishli o'quv dasturlarini joriy etishdir;
- o'qituvchilar, ota-onalar va o'quvchilar uchun mo'ljallangan va imkoniyatlari cheklangan bolalar oddiy maktablarda bilim olishlari mumkin bo'lishiga qaratilgan alohida dasturlarni "Special Olympics" ko'magida O'zbekistonda tajriba sifatida joriy etishdir.

Inklyuzivlik ijtimoiy tushunchadir. Ta'limga inklyuziya — bu jamiyatga qo'shilish bosqichidir. Inklyuziv jamiyat g'oyasi jamiyatni va uning institutlarini shu jamiyatning barcha a'zolarining qabul qilinishi va ishtirok etishiga yordam beradigan tarzda o'zgartirishdir. Inklyuzivlik nafaqat alohida ta'limga muhtoj bolalar, balki sog'lom bolalar uchun ham rivojlangan, insonparvar va samarali ta'lim tizimi sifatida e'tirof etilgan [6].

Ta'limga inklyuziya jamiyatga qo'shilish sharti sifatida alohida ehtiyojli bolalarni o'qitish mamlakat oldidagi asosiy vazifalardan biridir. Bu har bir kishi o'z harakatlarning ishtiroki va dolzarbligini his qilishi mumkin bo'lgan chinakam inklyuziv jamiyatni yaratish uchun zarur shartdir. Shuning uchun ham inklyuziv ta'limning rivojlanish tarixini o'rganish lozim.

Nogiron bolalar uchun ta'lim rivojlanishining tarixiy jihati:

1. Yigirmanchi asrning 60-yillari boshidan o'rtalarigacha "tibbiy model", "ajralish" nogironlarning izolyatsiyasiga hissa qo'shdi. Tibbiy model muvaffaqiyatli o'qish uchun alohida sharoitlar kerak bo'lgan bolaga g'amxo'rlik qilish g'oyasi shartlari:

- maxsus moddiy-texnik vositalar;
- maxsus o'qituvchilarning mavjudligi;
- bolaning imkoniyatlarini hisobga oladigan maxsus o'quv dasturlari;
- tibbiy yordam;
- kasbiy tayyorgarlikdan oldingi va kasbiy tayyorgarlik [7, 55].

Tibbiy model kamchiliklari:

- nogiron o'quvchilarning to'laqonli ijtimoiy hayotga tayyor emasligi;
- jamiyatdan ajratilganligi, ularning ijtimoiy guruhi-dan ajralib qolishi;
- bolani normal rivojlanayotgan tengdoshlaridan va oiladan izolyatsiya qilish, chunki ko'pincha maxsus (tuzatish) muassasalar bolaning yashash joyidan uzoqda joylashganligi sababli bir xil darajadagi bolalar bilan muloqot nutqning to'liq rivojlanishiga yordam bermaydi;
- bola jamiyatda, uning yo'qligida ijtimoiylashmaydi.

2. 60-yillarning o'rtalaridan 80-yillarning o'rtalariga qadar "normalizatsiya modeli" ("integratsiya"), nogironlarni jamoat hayotiga integratsiyalash.

Nogiron bolalar uchun ta'limni rivojlantirishning tarixiy jihati "Normallashtirish modeli" ("integratsiya") asosida nogiron bolani u yashayotgan jamiyatda qabul qilingan madaniy me'yorlar ruhida tarbiyalash g'oyasi yotadi. Ilgari jamiyatdan chetlashtirilganlarning "madaniy me'yoriy hayot namunalari"ning shakllanish manbai — bu kontekstda integratsiya odatda odandan hukmronlikka xos bo'lgan me'yorlarni qabul qilishni talab qiladigan assimilyatsiya jarayoni sifatida qaraldi [8].

"Normallashtirish modeli" ("integratsiya") prinsiplari:

- alohida ehtiyojli bola — bu turli xil faoliyat turlarini o'zlashtira oladigan rivojlanayotgan shaxs;
- jamiyat bolani normal sharoitga imkon qadar yaqin yashash sharoitlari bilan ta'minlashi kerak.

3. 1980-yillarning o'rtalaridan hozirgi kungacha "inklyuziya modeli", ya'ni kiritish.

Nogiron bolalar uchun ta'limni rivojlantirishning tarixiy jihati (HIA) Xalqaro darajadagi inklyuziv ta'lim tamoyillari (Salamanka deklaratsiyasi):

– ta'lim tizimlarini loyihalash va ta'lim dasturlarini amalga oshirish kerak bu xususiyatlar va ehtiyojlarning xilma-xilligi;

– alohida ta'limga muhtoj shaxslar oddiy maktablarga kirish imkoniga ega bo'lishi kerak, bu esa ushbu ehtiyojlarni qondirish uchun, birinchi navbatda, bolalarga qaratilgan pedagogik usullarga asoslangan sharoitlarni yaratishi kerak.

Nogiron bolani oddiy sharoitga joylashtirish integratsiyaga qarab qo'yilgan birinchi qadamdir. Inklyuziv ta'lim ijtimoiy modelga asoslanadi va u muammoni bolada emas, balki dastur va metodologiyada deb hisoblaydi. Bunday ta'lim tizimiga ba'zi bir o'zgartirishlar kiritishni taqozo etadi. Bunda har bir bolaning ehtiyojini hisobga olgan holda, o'quv rejalarini tayyorlanadi, uslubiyotning psixologik muammolari bilan bog'liq tomonlari to'g'ri yo'lga qo'yiladi. Inklyuziv ta'lim hamma bolalarni, shu jumladan, nogiron bolalarni ham o'zlari xohlagan maktabda o'qishi mumkin, deb xulosa chiqaradi. Bolaning nogiron bo'lib qolishiga jamiyat, undagi muhit, tushunmovchiliklar, yo'l qo'yilgan xatolar sababchi bo'lgan. Demak, uning o'qishi uchun ham shu jamiyatning o'zi jon kuydirishi shart.

Inklyuziv ta'limda maktabdagi jismoniy sharoit ham katta o'rin tutadi. Oddiy qilib aytadigan bo'lsak, barcha maktablar eshigiga o'quvchilar zinapoyalar orqali kirib boradilar. Lekin bu zinapoyalardan maxsus aravachalarda yuradigan nogiron bolalar ko'tarila olmaydilar, hatto qo'ltiqtaqoqda yuradigan bolalar ham, qiynalishlari mumkin. Demak, zinapoyalardan ham, eshiklardan ham sog'lom bolalar bilan birga nogiron bolalar ham bemalol o'tishlari uchun qulay sharoit yaratilishi shart. Inklyuziv

ta'lim maxsus ehtiyojli bolalarga doimo o'z oilasi mahallasi va qarindosh-urug'lari davrasida bo'lishga imkon beradi.

Bolalarni oilasidan, uyidan uzoqda bo'lgan iternatlariga joylashtirish ularning uyi, oilasi hamjamiyat hayotiga ishtirok etish huquqiga to'sqinlik qiladi. Uyidan, oilasidan, ota-ona mehridan uzoqda bo'lgan bola diydasi qattiq bo'lib o'sadi. Chunki oila tarbiyaning bosh markazidir. Inklyuziv ta'lim ta'lim sifatini yaxshilashga olib keladigan katalizator bo'lib xizmat qilishi mumkin. Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalariga qabul qilinishi o'quvchilarni yanada bolaga qaratilgan faolroq va ko'proq o'quvchilarni qamraydigan yangi o'qitish uslublarini ishlab chiqishga undaydi. Buning nafi esa hamma bolaga tegadi. Inklyuziv ta'lim kamsitishlarni oldini olishga yordam beradi. Jamiyatda nogironlarga nisbatan yangilish fikr va munosabat juda yuqoridadir. Ular haqida ma'lumotlarning kamligi va ularni yoshligidan maxsus muassasalarda yopiq tarzda ta'lim tarbiya berilishi bunga sababa bo'lishi mumkin. Bunday munosabatni yo'qotish

yoki kamaytirish ancha mushkul ishdir. Lekin tajribadan shu narsa ma'lumki, kattalarga nisbatan bolalar farqli va o'xshashlik jihatlarni tezroq anglar ekanlar. Agarda maxsus ehtiyojli bolalar normal rivojlanishdagi bolalar bilan birgalikda ta'lim tarbiya olsalar, bu barcha bolalarni nogironlarga nisbatan o'zlari singari bola ekanliklarni anglab, kasitmasliklarini ta'minlagan bo'lar edi.

Bugungi kunda eng dolzarb bo'lgan muammolardan biri, yani ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar bilan bog'liq, muhim vazifalar va tizimdagi holat xususidagi masaladir. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, barcha sohalarida bo'lgani kabi, bolalarni ijtimoiy himoyalash tizimida ham chuqur islohotlar va o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Inklyuziv ta'limga yangicha fikrlarning talqin etilishi milliy, tashkiliy va uslubiy islohotlarni talab etadi. Maxsus ta'limga muhtoj bolalar hozirgi maktab tizimida ehtiyojlari qondirilmayotgan bolalardir. Shu sababdan maktablar barcha bolalarning turli xildagi va umumiy maqsadlari, intilishlari, qiziqishlariga javob berishi va ularning bilim olishlarini ta'minlashi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muzaffarova X.N., Tangirova D. "Inklyuziv ta'lim" fani bo'yicha o'quv metodik qo'llanma / Jizzax davlat pedagogika instituti/. – 2011. – B. 68.
2. Umumiy pedagogika. Qism I: darslik / O.Musurnonova [va boshq.]. – T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – 376 b.
3. Алехина, С. В. Инклюзивное образование для детей с ограниченными возможностями здоровья [Текст]: моно-графия / Н.В.Новикова, Л.А.Казакова, С.В.Алехина / под общ. ред. Н.В.Лалетина; Сиб. Федер. ун-т, Красно-яр. гос. пед. ун-т им. В.П.Астафьева [и др.]. – Красноярск, 2013. – С. 71-95.
4. Tursunov, H.H., Hoshimov, U.S. (2022). Ta'lim tizimida ko'zi ojiz o'quvchilarni informatika va axborot texnologiyalari fanida o'qitish texnologiyalar. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 990-993. 2023).
5. Bakharev A.V. Inklyuziv ta'lim modelini ishlab chiqish: xalqaro tajriba / A. V. Bakharev // Bilim. Tushunish. Malaka. – 2014. – 2-son. – S. 330-335.
6. Bryzgalova S. O. Inklyuziv ta'lim: xalqaro tajriba, zamonaviy tendentsiyalar / S.O.Bryzgalova, G.G.Zak // Inklyuziv ta'lim: metodologiya, amaliyot, texnologiya: xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari 20-22.06.2011 / Ed. U. Ertanova, M.M. Gordon. – M., 2011. – S. 41-43.
7. Derkach A.A. Akmeologiya: shaxsning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi: 5 kitobda. 2-kitob: Boshqaruv faoliyatining akmeologik asoslari. – M.: RAGS nashriyoti, 2000. – 536 p.
8. Kuzmina O.S. O'qituvchilarni inklyuziv ta'lim sharoitida ishlashga tayyorlash: Dissertatsiya avtoreferati. ... pedagogika fanlari nomzodi: 13.00.08 / Kuzmina Olga Sergeevna. – Omsk, 2015. – 23 p.

